SURXONDARYO VILOYATIDA TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Mo‘minova Mavjuda Sharifovna - Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) 1 kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatining turizm salohiyatidan yanada takomillashtirish imkoniyatlari bayon etilgan. Maqolada viloyatning ziyorat turizmi imkoniyatlarini xorijiy mamlakatlarda targ‘ibot qilish orqali turistlar oqimi oshirish bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: turizm, ziyorat turizmi, turizm infratuzilmasi, turoperator, turagent, mehmonxona.

So‘ngi yillarda barcha hududlarda bo‘lgani singari Surxondaryo viloyatida ham turizm tarmog‘ini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bunda hududning noyob tarixiy-madaniy va me’moriy obidalari bilan turistlarni keng tanishtirish, zamonaviy turizm infratuzilmasini jadal rivojlantirish va ko‘rsatilayotgan turizm xizmatlari sifatini takomillashtirish hamda ichki turizmni rivojlantirish borasida sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, viloyatning turizm salohiyatini yanada rivojlantirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 27-maydagi “Surxondaryo viloyatining turizm salohiyatidan samarali foydalanish va uni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 332-son qaror qabul qilingan.

Ushbu qarorlarning qabul qilinishi hududning turistik imkoniyatlari yanada oshishiga, ziyorat turizm salohiyatidan samarali foydalanilgan holda sayyohlar sonining oshishiga, madaniy meros obyektlarini ta’mirlash va tiklash uchun respublika budjeti mablag‘lari ajratilishga hamda xorijiy mamlakatlarda viloyatning turistik salohiyatini chet eldagi elchixonalarimiz orqali targ‘ibot qilishga turtki bo‘lmoqda.

Shu bilan birga, 2023-yil 17-noyabrida Prezidentingiz raisligida o‘tkazilgan “Surxondaryo viloyatini ijtimoiyiqtisodiy rivojlantirish yuzasidan yig‘ilish”da ham viloyatda turizm sohasini rivojlantirish maqsadida “Samarqand–Kitob–Denov–Oltinsoy–Termiz” marshruti bo‘ylab “Naqshbandiya pirlari” turizm halqasi” va kelgusi yilda viloyatga sayyohlar oqimini 3 barobar oshirish” vazifalarni belgiladilar[1].

Surxondaryo viloyatida turizm sohasini rivojlantirish, ichki va ziyorat turizmini tashkil etish, hududda arxeologik, ekstremal va madaniy turizm yo‘nalishlarini yanada rivojlantirish bilan bog‘liq muammolarning ilmiy asoslari Eshtayev A. A., Tuxliyev I. S., Aliyeva M. T., Xudoyorov A., Safarov B. Sh., Norchayev A. A., Safayeva S. R., Mazin K. A., Maxmudova M. R., asarlarida tadqiq etilgan[2].

P.Z.Xashimov va Z.N.Turayevlarning "Surxondaryo viloyatida turizm sohasining rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari" maqolasida Viloyatning o'ziga xos me'morchilik obyektlari, diniy ziyoratgohlari, jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan milliy urf-odatlari, oshxonasi hamda tog'oldi hududlaridagi ko'plab dam olish maskanlari, bolalar oromgohlari, davolash-sog'lomlashtirish maskanlarining mavjudligi va turistik-rekreatsion faoliyatni rivojlantirishdagi ulkan salohiyatdan unumli foydalanishda tashkiliy iqtisodiy mexanizmni takomillashtirish, asosiy yo'nalishlari bo'yicha ijtimoiy va transport infratuzilmalarini barpo etish lozimligi bayon qilingan[6].

Yuqorida ko'rsatilib o'tilgan olimlarning fikr va mulohazalari hamda hududning turistik imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda Surxondaryo viloyatiga turistlarni yanada jalb qilish, yangi ish o'rinlarini tashkil etish maqsadida, uning tusristik salohiyatini xorijiy malakatlarda targ'ibot qilishi ishlarini yanada kuchaytirish, viloyatga to'g'ridan-to'g'ri kiritiladigan investitsiyalar oqimini oshirish, arxeologik hamda ekstremal turizm Sharqiy Osiyo va Yevropa mamlakatlarida targ'ibot qilish tavsiya etilmoqda.

Tadqiqotda Surxondaryo viloyatida turizm sohasini rivojlantirishni belgilashda tadbirkorlik subyektlari tomonidan kiritilayotgan investitsiylar va ularga berilayotgan subsidiyalarni hisobga olish va shu orqali turizmning barqaror rivojlanishini tizim sifatida o'rganish metodologiyasi qo'llanilib, bu borada mutaxassislar fikrini o'rgangan holda, kuzatish, qiyoslash, emperik tadqiqot, tizimli va qiyosiy tahlil hamda ekspert baholash kabi usullari orqali turizm sohasini tarkibiy qismlarining rivojlanishi yo'nalishlarini belgilab berish usuli taklif etilgandir. Shuningdek, kelajakda viloyatda turizm tarmog'ini rivojlanishi yo'nalishlarining ustivor vazifalariga oid xulosalar qilingan va mintaqada turizmni takomillashtirishga oid aniq tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Surxondaryo viloyatiga tashrif buyurayotgan turistlar sonining ortishi tabiiyki joylashtirish vositlariga bo'lgan talabning ham ko'payishiga turtki bo'ladi. Xususan, 2022-yil davomida 142,3 ming nafar va 2023-yilning 10 oyi mobaynida 239,9 ming nafar xorijiy turistlar viloyatga tashrif buyurgan.

O'z navbatida, viloyatda 2017-yilda joylashtirish vositalari jami 27 ta mavjud bo'lgan bo'lsa, 2023-yilga kelib joylashtirish vositalarining umumiy soni 227 tani tashkil etgan.

1-jadval: Surxondaryo viloyatida faoliyat olib borayotgan joylashtirish vositalari haqida ma'lumot

№	Hudud nomi	Joylashtirish vositalari								
		mehmonxonalar			oilaviy mehmon uylari			sanatoriyalar va sog'lomlashtirish muassasalari		
		soni	xonalar soni	o'rinlar soni	soni	xonalar soni	o'rinlar soni	soni	xonalar soni	o'rinlar soni
1	Angor tumani							1		20
2	Boysun tumani	8	106	287	45	14	144	4		150
3	Jarqo'rg'on tumani							6		130
4	Muzrabot tumani							1		50
5	Oltinsoy tumani	1	10	18	1	3	10	2		230
6	Sariosiyo tumani	3	41	97	32	74	251	1		100
7	Termiz shahar	22	682	1101	27	84	251	15		520
8	Termiz tumani	4	147	238	7	17	58	9		380
9	Uzun tumani	2	35	72						
10	Sherobod tumani	4	54	117	5	16	47	6		155
11	Sho'rchi tumani	5		130	2	6	18	4		120
12	Qiziriq tumani							2		50
13	Qumqo'rg'on tumani	1	16	30				5		130
Jami		**50**	**1091**	**2090**	**119**	**214**	**779**	**56**	**0**	**2035**

Yuqorida keltirilib o'tilgan jadvaldan ham ko'rish mumkinki, joylashtirish vositalarining asosiy qismi Termiz shahri, Boysun, Termiz, Sherobod va Sariosiyo tumanlarida joylashgan.

Viloyatda ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish borasida ham samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Angor tumanidagi "Sayid Baraka" jome masjidi Sariosiyo tumanidagi "Abdullo ibn Abbos", "Imom Muxammad al Buxoriy" jome masjidi, Boysun tumanidagi "Abu Bakr Siddiq" jom'e masjidlari 10,0 mlrd.so'm mablag'lar hisobiga qurib foydalanishga topshirilgan.

Termiz shahridagi "Qirqqiz qal'asi" va Termiz tumanidagi "Zurmola" madaniy meros obyektlari restavrat- siyasi uchun 3,7 mlrd. so'm respublika budjeti mablag'lari ajratilgan. Viloyatdagi madaniy meros obyektlari, ziyoratgohlar, dam olish maskanlari va boshqa 113 ta tashrif obyektlariga olib boruvchi yo'llarga jami 267 ta yo'l ko'rsatkichlari o'rnatilgan.

Turistlarning o'rtacha qolish kuni 2017-yilga nisbatan 2 barobarga ortib, 3 kunni tashkil qilmoqda. 2017- yilda viloyatga tashrif buyurgan xorijiy turistlar soni 20 ming

nafar va turistik xizmatlar eksporti 6 mln.dollarni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilda bu ko‘rsatkich 143,9 ming nafarga hamda turistik xizmatlar eksporti 15 mln. dollarga yetkazildi.

Yuqorida berilgan ma’lumotlar asosida xulosa qiladigan bo‘lsak, Surxondaryo viloyatida turizm sohasini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish uchun quyidagi ishlarni muntazam amalga oshirib borish lozim hisoblaniladi:

- viloyatda turizm sohasini yana qo‘llab-quvvatlanishida asosiy e’tiborni sayyohlik infratuzilmasini rivoj- lantirishga hamda sayyohlar oqimini rag‘batlantirishga oid choralar ustuvor bo‘lishini ta’minlash;
- viloyatga tashrif buyurayotgan turistlar tomonidan joylashtirish vositalari bo‘lgan talab yuqori ekanligini
- inobatga olgan holda, tadbirkorlarga mehmonxona qurishga “yulduzi”dan qat’i nazar subsidiya berish;
- musulmon mamlakatlardan tashrif buyuradigan xorijiy turistlarning soni ortirish maqsadida, viloyatning ziyorat turizni imkoniyatlarini Turkiya, Malayziya, Indoneziya mamlakatlarida targ‘ibot qilish;
- viloyatga ichki sayyohlar oqimini oshirish maqsadida avia va poyezd qatnovlari sonini ko‘paytirish.

Xulosa qilib aytganda, viloyatning ziyorat va ichki turizm salohiyati yuqoriligini inobatga olgan holda ushbu yo‘nalishlarni yanada rivojlantirishga ko‘maklashish jihatidan qayta ko‘rib chiqish va takomillashtirib borish, turizm infratuzilmasini shakllantirishga ustuvorlik berish hamda uning turistik imkoniyatlarini xorijiy mamlakat- larida targ‘ibot qilib borish zarur hisoblaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘RQ-549-son. 2019-yil 18-iyul.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2021-yil 9-fevral, PF-6165-son) Farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-maydagi “Koronavirus pandemiyasining salbiy ta’sirini kamaytirish uchun turizm sohasini qo‘llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6002-son Farmoni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 28.12.2018. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2019. – 64 b.

5. A.Xudoyorov “O‘zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari” monografiyasi 2021-y. Toshkent.